

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHI YIG'ILISHINING
BAYONI**

Qarshi shahri

1-son

2024-yil 30-avgust

Kengash a'zolari - 41 nafar

Qatnashdilar - 30 nafar

Qatnashmadi - 11 nafar (sababli)

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligini tantanali ravishda kutib olish bo'yicha tayyorgarlikning borishi haqida

2. Universitet Kengashining yangi tarkibi, ish rejasi hamda rektor, prorektor, fakultet dekanlarining yangi ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

Rektor D.Nabiyev

3. 2024/2025 o'quv yili o'quv-uslubiy jarayoniga tayyorgarlik holati va 1-kurs uchun o'quv meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi boshlig'i Z.Fayziyev

Turli masalalar.

4. Universitetning vakant (bo'sh) kafedra mudiri, professor, dotsent, o'qituvchi-assistent, o'qituvchi-stajyor lavozimlariga tanlov masalalari

Kengash kotibi G.Tojiyeva

5. Kafedra professor-o'qituvchilarini OAK ga professor, dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida

6. Qarshi davlat universiteti qoshidagi "Muqobil energiya manbalaridan foydalanish o'quv-ilmiy laboratoriyasi" Nizomini tasdiqlash to'g'risida

7. Magistratura mutaxassisliklari talabalarining magistrlik dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbarlarini o'zgartirish to'g'risida

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov

8. 2024/2025-o'quv yili uchun talabalar turar joylarining oylik to'lovini belgilash haqida

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor X.Djurayev

9. 2024-2025-o'quv yilidan boshlab xorijiy, nodavlat va davlat oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini ko'chirib kelayotgan talabalarning fanlar farqidagi o'talmagan amaliyot uchun belgilangan kredit miqdorlari to'langandan so'ng shaxsiy grafik asosida amaliyot o'tashini tashkil etish, GPA ballari yetgan taqdirda kursini pasaytirmagan holda, tegishligi bo'yicha kursga qabul qilish to'g'risida

Universitet kengashi rejasidagi “Universitet Kengashining yangi tarkibi, ish rejasi hamda rektor, prorektor, fakultet dekanlarining yangi ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida” ikkinchi masala navbatdagi kengashga qoldirildi.

3-masala.

2024/2025 o‘quv yili o‘quv-uslubiy jarayoniga tayyorgarlik holati va 1-kurs uchun o‘quv meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida

Ushbu masala yuzasidan Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi boshlig‘i Z.Fayziyevning axboroti tinglandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib Kengash

QAROR QILADI:

1. Qarshi davlat universiteti Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi boshlig‘i Z.Fayziyevning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin;
2. 2024/2025 o‘quv yilida tayyorgarlik jarayonlari qoniqarli deb topilsin.
3. Yangi o‘quv yilida 1-kurslar uchun tayyorlanayotgan o‘quv meyoriy hujjatlar: o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, fan dasturi, ishchi fan dasturi, sillabuslar, mustaqil ta‘lim va laboratoriya ishlanmalari o‘quv-uslubiy majmua hamda malakaviy amaliyot dasturlarini tasdiqlash universitet Kengashidan so‘ralsin.
4. O‘quv jarayoniga tegishli meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlatishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan kafedra mudirlariga Kengash qarori bilan qat‘iy ogohlantirish berilsin va bir hafta muddat ichida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish vazifasi yuklatilsin;
5. Ushbu qaror ijrosini nazort qilish O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor A.Xolmurodov zimmasiga yuklatilsin

Kengashda turli masalalar ham ko‘rib o‘tildi.

Kengash raisi o‘rinbosari

prof. A.Xolmurodov

Kengash kotibi

prof. G.Tojiyeva

